

**BOSHLANG`ICH SINF O`QITUVCHILARIDA KOMMUNIKATIV
KOMPETENTLIKNING O`ZIGA XOS NAZARIY ASOSLARI**

Rashidova Maftuna Sodiq qizi

*Jizzax shahar Maktabgacha va mактаб та`лими бўлимига қарашли 30-сонли
мактабнинг бoshlang`ich sinf o`qituvchisi +998916268585*

rashidovamaftuna235@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo`lajak boshlang`ich sinf o`qituvchilarining dars jarayonlariga kirishdan avval o`zlarida mavjud bo`lishi kerak bo`lgan kommunikativ kompetentlik tushunchasi, kommunikativ kompetentlik, bo`lajak o`qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari, muloqot qilishda uchta o`zaro bog'liq kommunikativ, interfaol va pertseptiv komponentlarning birligi o`qituvchining kasbiy kommunikativ kompetentliliği, kommunikativ o`zini o`zi takomillashtirish, oliy pedagogika ta'liming o`quv mashg'ulotlari haqida so`z boradi.

Kalit so`zlar: kommunikativ kompetentlik, bo`lajak o`qituvchi, muloqot, oliy ta'lim, kasbiy kompetentlik, malaka, pedagogik qobiliyat.

Kompetensiya u yoki bu soha bo`yicha bilimdonlik . "Kompetensiya" (lot. competo - erishyapman, munosibman, loyiqlman) degan ma`nolarni bildiradi. Kompetentlik tushunchasi deganda, ma'lum bir sohada talaba (masalan, bo`lajak o`qituvchi) tomonidan egallangan kompetensiya, ya`ni ma`lum bir sifatlarning to`liq shakllangan majmui tushuniladi. Kompetentlilik tushunchasi (lotinchadan competelia, compete so`zidan olingan bulib "birgalikda erishaman, qozonaman, mos kelaman, to`g`ri kelaman" degan ma`noni bildiradi) lug`atlarda esa "nimadir to`g`risida fikr yuritishga yo`l beradigan bilimlarga ega bo`lish", "xabardor bo`lmoq, huquqli bo`lmoq" degan ma`noni bildiradi. Amalda barcha lug`at tuzuvchilar "kompetentlik" va "kompetensiya" kategoriylarini chegaralab ko`yadi. Kompetentlik ta'rifi o`xshash va bir-birini o`rnini egallaydi (to`ldiradi), shu bilan bir vaqtida kompetensiya so`zi uchun yagona izohlash yo`q, bu tushuncha "vakolatlar yig`indisi (huquq va majburiyatlar) kandaydir organ yoki lavozimli shaxsning qonun, nizomlar bilan belgilab ko`yilgan ushbu organ yoki boshqa holatlar", "nimanidir to`g`risida fikr yuritishga yo`l beradigan bilimlarga ega bo`lish (egalik qilish)", "kimdir yaxshi xabardor bo`lgan savollar to`plami (sohasi)"tushuniladi. .

Kompetentlik tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o`zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o`zaro munosabatlarda yangi yo`l tutishi, noanik vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to`la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalikni anglatadi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarining egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo`nalish bo`yicha integrativ bilimlar Va harakatlarning o`zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishslash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi. Kompetentsiya o'z navbatida pedagogik kompetentlik va kommunikativ kompetentlik kabi tushunchalarni ham o`z ichiga oladi.

Kommunikativ kompetensiya asosini quyidagilar tashkil qiladi: muloqotni tashkil qilish, shaxslararo muloqot ko'nikmasi; mulokotni, kontaktni saqlash, teskari aloqani o'rnatish; mulokot natijalarini analiz qilish. H. Mustafayeva o'z tadqiqotida ingliz tili grammatikasini ijtimoiy-gumanitar fakultetlar o'zbek fakultetlar o'zbek guruhlari talabalari tomonidan o'zlashtirishning lingvovidaktik tamoyillari, metodik vositalari to'liq bir majmua sifatida tadqiq etgan. T. Madraximov ingliz tili so'zlashuv nutqining strukturaviy, funksional-semantik Ba pragmatik xususiyatlari kommunikativ tilshunoslik hamda qiyosiy tipologik nuqtai nazardan tahlilga oid muammolarni o'rgandi. So'zlashuv nutqining uslubiy varianti sifatida tasvirlash va tahlil qilish bilan cheklanib qolmasdan, uning sifat xarakteristikasini belgilab beruvchi omillar ham aniqlandi etno-sosiolingvistik, kognitiv-kommunikativ, paralingvistik, ruhiy- fiziologik, modallik, individual omillar turli lisoniy birliklar misolida yoritib berildi . Kommunikativ kompetensiya - bu muayyan narsalarni qo'yish va hal kilish kobiliyati aloqa vazifalari turlari: maqsadlarni aniqlash aloqa, vaziyatni baholash, hisobga olish hamkorning niyatlari va aloqa usullari (hamkorlar), yetarli strategiyalarni tanlash, aloqa muvaffaqiyatini baholash, o'z nutq xatti-harakatlarini o'zgartirishga tayyor bo'lish.

Xulosa qilib aytganda, muloqot qobiliyati shaxsiy ta'lif, integral sifat sifatida qaralishi kerak strukturaviy tarkibiy qismlari kognitiv, motivasion, hissiy va xulq-atvor bo'lgan shaxslar uning amalga oshirilishi shaxsning kommunikativ faoliyatining samaradorligini, uning umumiy muloqot qobiliyatini belgilaydi.

Muloqot qilishda uchta o'zaro bog'liq kommunikativ, interfaol va pertseptiv komponentlarning birligi sifatida uch tomonlama yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi (G.M.Andreeva, A.A.Bodalev, B.D.Parigin). Bunda muloqotning kommunikativ tomoni o'zida o'quvchilarning axborotni uzatish, o'zaro ta'sir qilish interfaol tashkiliy jihatini, pertseptiv jihat esa, ularning bir-birini idrok etishi hamda shu asosda o'rnatilgan o'zaro tushunish va hissiy aloqani namoyon etadi. O'qituvchining kommunikativ qobiliyatları turli tushunchalar bilan: "pedagogik mahorat", "malakaviy tavsif", pedagogik ta'lif nazariyasida o'qituvchiga kasbiy-professional asoslangan talablar turli tushunchalar bilan ifodalangan: "pedagogik mahorat", "malakaviy tavsif", "shaxsning professiogrammasi", "professional tayyorlik", "kasbiy-professional kompetentlik" bilan ifodalangan.

Umuman olganda, yuqorida sanab o'tilgan, bir hodisani tavsiflovchi pedagogik toifalar alohida mazmuniy jihatlariga ega va turli kontekstlarda qo'llaniladi. "Kommunikativ kompetentlik" tushunchasi bilan yaqin aloqador bo'lgan - "shaxsning kommunikativ yadrosi" tushunchasi mavjud. «Kommunikativ yadro» tushunchasi yaqinda paydo bo'lgan va ilmiy tadqiqot ishlarida zamonaviy psixolog A.A.Bodalev tomonidan birinchi marta qo'llanildi. Kommunikativ o'zini o'zi takomillashtirish maqsadi aniq, ammo motivlar turlicha bo'lishi mumkin. Insonparvar yo'nalgan o'qituvchi uchun kommunikativ o'zini o'zi takomillashtirish nafaqat o'zi uchun o'zini o'zi yaxshilashda,

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

balki samarali o'zaro munosabatni amalga oshirishning asosiy sharti sifatida kechishi kerak bo'lib, bu bolalarning rivojlanishiga, ularning individualliklari va o'ziga xosliklarini saqlashga yordam beradi. Shuning uchun kommunikativ o'zini o'zi rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlar katta ahamiyatga egadir. Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari amaliy yondashuv orqali kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil qilishning metodik ta'minotini ishlab chiqishni taqozo qildi. O'quv mashg'ulotini axborot, o'zini o'zi anglash va amaliy kabi uchta blokda qurish maqsadga muvofiq. Oliy pedagogika ta'limining o'ziga xosligini bunday tushunish madaniyat va ta'lim tizimi shaxslaridan, o'qituvchidan o'z kasbiy-mutaxassisligi kompetentligini doimiy namoyon etish talab etilishi an'anaviy ta'lim tizimi mazmun-mohiyatidan izlash manbai bo'lishi mumkin.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Arziqulov D.N. Kasbiy kamolatning psixologik o'ziga xos xususiyatlari. Psixol. fan.nom. diss...avtoloyihai. - Toshkent: 2002. -22 b.
2. Karimova, M. O., & Saidullaeva, A. R. (2020). Pedagogical basis of the use of universal and national values in the spiritual and moral education of children in the family. PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology, 77(7), 8547-8555.
3. Karimova, M., & Tuychieva, R. (2019). THE PEDAGOGICAL BASICS OF TRAINING STUDENTS FOR PROFESSIONAL, MORAL AND EDUCATIONAL FUNCTION. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(10), 311-317.
4. Otajonovna, K. M., & Kizi, A. K. G. (2021). Pedagogical bases of formation of innovative culture of the educator of preschool educational institution. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 457-460.
5. Otajonovna, K. M., Bakhodirovna, N. M., & Kizi, T. R. N. (2021). Pedagogical bases of the organization of methodical work in professional colleges. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(4), 1095-1098.
6. Muslimov N. va boshqalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. - T.: «Fan va texnologiyalar», 2013. -128 b.
7. Nizomxonov S.A., Madaminov I. Pedagogning kasbiy faoliyatida axborot kommunikativ kompetentlikni oshirish yo'llari. // Zamonaviy ta'llim» jurnali, 2014, №10.
8. Yusufovich, A. A. (2022). Developing the communicative competence of future teachers is an effective measurement for self-organization. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(1), 302-304.
9. Yusufovich, A. A. (2020). ISSUES OF FORMATION OF COMMUNICATIVE COMPETENCE, WHICH IS AN INTEGRAL PART OF PROFESSIONAL-PEDAGOGICAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 5(7).